

## TARBIYACHI PEDAGOGNING AXLOQIY FAZILATLARI BORASIDA

Mamatmo'minova Nigora Murodilla qizi

1-kurs, 2-23-guruhi talabasi

Maqsuda Norbosheva

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dots.v.b.  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Ilmiy rahbar.

### Annotatsiya

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining ilk va muhim tarkibiy qismi sifatida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor karatilmoqda. Bunda ta'lim muassasasida pedagogik jarayonni amalga oshiruvchi mas'ul shaxs tarbiyachi - pedagoglarga ham zarur kasbiy talablar qo'yiladi.

**Kalit so'zlar:** o'yin, ta'lim, faol, shakl, tarbiya, shaxs.

Tarbiyachi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'kituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir[1].

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi qoidalar, 'me'yorlar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq 'me'yorlari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq 'me'yorlaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqyelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq 'me'yorsi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq 'me'yorlari, talablari, mezonlarini belgilaydi[2].

Tarbiyachi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlari, qoidalar, 'me'yorlar tarbiyachining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi.

Tarbiyachi odobining 'me'yorlari har bir pedagog tarbiyachining shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim.

Axloqiy e'tiqod va sifatlari tarbiyachining mashg'ulot jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, bolalar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik takt tarbiyachi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Tarbiyachi xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi[3].

Tarbiyachi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar tarbiyachi odobida pedagogik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi[4]. Bolalarga yaxshilik qilish, tarbiyachilik burchi, tarbiyachilik sha'ni, qadr-qimmat, tarbiyachilik mas'uliyati, tarbiyachilik vijdoni, talabchan, va adolatli bo'lish, tarbiyachining ma'naviy qiyofasi, halolligi, pokligi, rostgo'yliги kabilar tarbiyachi axloqining muhim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak tarbiyachi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi[5].

Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar orasida yaxshilik qilish fazilati muhim o'rin egallaydi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi yodgorligi — «Avesto»da ezgu fikr, yaxshi so'z va yaxshi ishlar insoniy fazilatlar sifatida ulug'lanadi. Ota-bobolarimiz doimo yaxshi niyat, yaxshi orzu-istaklar bilan yashaganlar. O'zlaridan yaxshi nom qoldirishga intilganlar. Kishilarning fe'l-atvori, yurish turishi, xatti-harakati, gap-so'zi ularning xulqiga bog'liq. Yaxshi xulq egasi bo'lgan kishi odamlarga yaxshilik qila oladi[6].

Abdulla Avloniy yaxshi xulqlar qatoriga: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, gayrat, riyozat, kanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymoq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqdisod, viqor, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat, avf kabilarni kiritadi. “Emdi bu yaxshi xulqlarni qo'lga olmoq uchun ota-ona, muallim, ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog'i birla tinglab, doim xotirada tutmoq, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo'lmak, axloqi. buzug, yomon kishilardan qochmoq lozimdur”.

Yaxshilik ijobiy axloqiy fazilat bo'lib, xulqiy sifatlarning majmuini, inson faoliyati yoki biror xatti-harakatiga ijobiy munosabatning yig'indisini aks ettiradi. Yaxshilik kishining axloqiy ongi va axloqiy tajribasida jamiyat va shaxs manfaatlarining birligini aks ettirib, shaxsga va jamiyatga manfaat keltiradigan ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatdir[7].

Tarbiyachi odobida yaxshilik fazilatiga pedagogik faoliyat bilan bog'liq holda, tarbiyachining yaxshiligi shaklida aniqlik kiritiladi. Yaxshilik fazilati tarbiyachining ham, bolalarning ham, ota-onalarining ham yaxshi niyatli, xayrixoh, mehribon bo'lishini taqozo qiladi[8]. Yaxshilik qaror topishi uchun pedagogik jarayonda yomonlikka murosasiz bo'lish, yaxshi istak bilan xushmuomala qilish, yaxshi qiliq, yaxshi xatti-xarakatlarning birligi zarur. Zero, bolalarga ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lmog'i lozim.



**ADABIYOTLAR:**

1. Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. Наука и образование сегодня, (7 (66)), 66-67.
2. Норбошева, М. А., & Норбошева, М. А. (2018). Реформы системы дошкольного образования в Узбекистане. In Фундаментальные и прикладные исследования: гипотезы, проблемы, результаты (pp. 25-29).
3. Норбошева, М. О. (2020). Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида мулоқотнинг ўрни. Педагогика ва психологияда инновациялар, 9(3), 7.
4. Норбошева, М. О. (2022). МУЛОҚОТГА ЎРГАТИШ БОЛА ШАХСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ШАКЛИ СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(4).
5. Norbosheva, M. A. (2021). Problems of personal formation of the child in the family in the studies of scientists of Uzbekistan. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 297-303.
6. Норбошева, М. (2020). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА ПСИХИК ВА ШАХС СИФАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Педагогика ва психологияда инновациялар, 11(3).
7. Norbosheva, M. (2020). Issues of moral perfection and spiritual height in the poem of “Kutadgu Bilig” by Yusuf Has Hadjib. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 2020.
8. Norbosheva, M. Rivojlantiruvchi erkin faoliyat markazlarini tashkil etish va uning ahamiyati. O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 219.